

Koreya hamkorlik agentligi uzoq muddatli magistirlik dastur (koica) doirasida koreya universitetlarida tahsil olish dasturni e`lon qiladi

Uzoq muddatli magistirlik dasturi (koica) doirasidagi universitetlar:

- Qishloq xo`jaligi yo`nalishi bo`yicha KOICA-Kyungpook universiteti;
- Qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti yo`nalishi bo`yicha KOICA- Kangvon universiteti;
- Energetika fani va siyosati yo`nalishi bo`yicha KOICA-Aju universiteti;
- Suv resurslarini boshqarish yo`nalishi bo`yicha KOICA-Sungkyunkvan universiteti;
- Qishloq xo`jaligi muhandisligi yo`nalishi bo`yicha KOICA- Kangvon universiteti;

Dastur bo`yicha qo`shimcha ma`lumotlar:

- Ishtirokchilar soni har bir davlat uchun: har bir dastur bo`yicha 2 nafar;
- Nomzodlar soni: har bir dastur bo`yicha 6 nafar (*dasturning umumiyl soni 17 ta*);
- Ishtirokchilar uchun hujjat topshirish muddati (28.02.2018y);
- Nomzodlar KOICA ofisda suhbat asosida tanlanadi;
- To`ldirish uchun ariza shakli: 2 ta shakli mavjud (1- ariza shakli KOICA `CIAT` 2- ariza shakli har bir universitetga);

Har bir universitetning dastur bo`yicha ariza to`ldirish shakli har xil bo`lib, ariza to`ldirish bo`yicha bat afsil ma`lumotlarni quyidagi veb-sahifa orqali olish mumkin: <http://training.koica.go.kr>

1-bosqichda KOICA ofisida hujjatlar ko`rib chiqiladi;

2-bosqichda hujjatlar ko`rib chiqiladi, shundan so`ng universitetlar tomonidan suhbat o`tkaziladi.

- Bir vaqtning o`zida bir nechta dasturga hujjatlar topshirish man etiladi.

Nomzodlardan quyidagilar talab etiladi:

- ishlaydigan tashkilotdan rasmiy tavsiyanoma;
- jismoniy va ruhiy jihatdan sog'lom bo`lishi;
- davlat tashkilotida faoliyat olib borishi;
- bakalavr diplomiga ega bo`lishi;
- ingliz tilini yaxshi bilishi

Avval mazkur dasturda ishtirok etganlardan hujjatlar qabul qilinmaydi.

Dastur bo`yicha bat afsil ma`lumotlarni quyidagi veb-sahifa orqali olish mumkin: <http://training.koica.go.kr>

TIQXMMI Xalqaro aloqalar bo`limi